



Received: April 26, 2024
Accepted: June 19, 2024
Available online: June 25, 2024

Shaxnoza Choriyeva

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Shakhnoza Chorlieva

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: chorivash@mail.ru
ORCID iD: 0009-0007-3457-1417

INGLIZ “YO‘QOTILGAN AVLOD” ADABIYOTIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIY O‘ZIGA XOSLIGI (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida)

ANNOTATSIYA

Birinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa (Amerika) adabiyotida yuzaga kelgan “Yo‘qotilgan avlod” (“Lost generation”) adabiy oqimi vakillarining urushda qatnashgan yoki qatnashmaganligiga ko‘ra toifalarga ajratilishi, ularning asarlarida aks ettirilgan urush davri murakkabliklarining teran mushohadasi bilan birga, qahramon ruhiyati, xususan, ayol siymosi, uning tiynatidagi evrilishlar tasvirini “urush va ayol” konteksti misolida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazining badiiy o‘ziga xosligini Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida ochib berish maqsad qilingan. Jumladan, bu borada (1) “Yo‘qotilgan avlod” namoyandalarining badiiy olami, iste’dodi, tipiklashtirish manerasi, real voqelikni qalb prizmasidan o‘tkazish mahorati, front va front ortidagi ayollar tasviridagi o‘ziga xosliklarni aniqlash; (2) Yevropa va Amerika “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotining urushda qatnashgan va qatnashmagan ijodkorlarining asarlaridagi personajlarning urushdan avvalgi va keyingi hayotini tasvirlashda farqli va universal jihatlarini nazariy dalillash; (3) R.Oldington va V.Britten asarlaridagi fikrlar, g‘oyalar va tasavvurlar ko‘lamining kengligi, yozuvchilar eruditsiyasi, badiiy tafakkur fantaziyasi asosida yaratilgan ayollar assotsiativ obrazining umumlashma va individual xususiyatlari, turli zamon va makonlar qamrovi, shakl va mazmun mutanosibligi negizidagi ayol – jamiyat – urush

THE ARTISTIC ORIGINALITY OF WOMEN IMAGES IN THE ENGLISH LITERATURE OF THE “LOST GENERATION” (on the example of Richard Aldington and Vera Brittain’s works)

ABSTRACT

The “Lost Generation” refers to literary writers who emerged in Western European (American) literature after the First World War. It is important to categorize them based on whether they participated in the war or not, and to deeply analyze how the complexities of wartime are reflected in their works, along with the changes in the mindset of the main characters, particularly the female figures, in the context of “war and women”.

This study aims to explore the unique artistic portrayal of women in English “Lost Generation” literature through the works of Richard Aldington and Vera Brittain. Specifically, the study seeks to achieve the following objectives:

1. Investigate the artistic expression of “Lost Generation” writers, including their talent, typification style, and ability to depict reality through emotional perception, and analyze the portrayal of women both at the front lines and back home.

2. Provide theoretical evidence of the unique and universal aspects of European and American “Lost Generation” literature in describing characters’ lives before and after the war, considering authors who experienced the war and those who did not.

3. Analyze the breadth of thoughts, ideas, and imaginations in the works of R.Aldington and V.Brittain, and their erudition in creating an associative image of women through artistic thinking, spanning different times and spaces.

munosabatlarining badiiy ifodasini izohlash tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Tadqiqotda yuqorida belgilangan vazifalarning bosqichma-bosqich bajarilishida qiyosiy-tipologik, madaniy-tarixiy, biografik, psixologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan. Shunga ko'ra, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender munosabatlarda sog'lom jamiyat an'analarining shakllanish jarayoni ham Birinchi jahon urushi bilan bog'liq voqealarga borib taqalishi xususidagi ma'lumotlar "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti namunalarida bayon etilib, urush ayollarga erkaklar bilan hamqadam jamiyatning barcha jabhalarida harakatlanish imkoniyatini berdi hamda jamiyatning teng huquqli a'zosi maqomiga erishishga muvassar qildi.

R.Oldington va V.Britten asarlarida yozuvchi uslubi va badiiy mahorat masalalari bo'yicha olib borilgan izlanishlar har ikki ijodkorning nazmiy va nasriy asarlarida "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti xususiyatlari yetakchilik qilishni, shu bilan birga, o'z davri uchun yangilik ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, badiiy mahorat, yozuvchi uslubi, yo'qotilgan avlod, ayol obrazi, urush davri, novatorlik, gender munosabatlar, nasriy asar, ijodkor shaxs.

The research used comparative-typological, cultural-historical, biographical, psychological, and structural analysis methods to implement the defined tasks step-by-step. The results indicate that the formation of traditions promoting healthy gender relations can be traced back to events related to the First World War.

In conclusion, the research conducted on the writing style and artistic skills in the works of R.Aldington and V.Brittain and the characteristics of "Lost Generation" literature in both creators' poetic and prose works are original for their time.

Key words: American literature, artistry, writing style, Lost Generation, female character, wartime, innovation, gender relations, prose work, creative person.

KIRISH

"Yo'qotilgan avlod" namoyandalarining obraz yaratish mahorati, asarlari arxitektonikasi, voqealarning keskin rivoji va yopiq yechimi, ularda ilgari surilgan badiiy-falsafiy g'oyalar, o'sha davr tahlikasida ayollarning achchiq qismati, matonat va saboti tasvirlangan epik turga mansub asarlar tahlili zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti Birinchi jahon urushini bevosita yoki bilvosita boshidan kechirgan, urushning shafqatsiz tafsilotlari haqida badiiy asarlar yozgan ijodkorlar guruhiga nisbatan qo'llaniladi. Ularning asarlarida markaziy mavzu sifatida front va frontorti voqealari tanlangan va vatanparvarlik g'oyalari tarannum etilgan. Zero, gender munosabatlarning adabiyotshunoslikdagi tadqiqi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, ularga munosabat va tarixiy jarayonning badiiy ifodasini tadqiq etish o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Dunyo adabiyotshunosligida urush sabab ayollarning jamiyatdagi maqomining o'zgarishi, jang maydonlarida ayollarning bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlari, ayollarning tinchlikni targ'ib qiluvchi harakatlarga rahnamolik qilishlari, inqilobiy ruhdagi nutqlar bilan namoyishlarda ishtirok etishlari hamda urushning ayollar hayotiga bevosita va bilvosita salbiy ta'siri kabi masalalar "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti tamoyillari asosida o'rganilmoqda. Adabiyotshunoslar "yo'qotilgan avlod" sifatida Birinchi jahon urushi davrida yashab, ijod etgan va Amerika adabiyotida mashhurlik

pillapoyasiga erishgan amerikalik yozuvchilar guruhini nazarda tutadi. XX asrning birinchi yarmi G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida asosiy mavzulardan biri Birinchi jahon urushi (1914–1918) va uning insoniyatga yetkazgan salbiy oqibatlari edi. Yozuvchilar urush va adolat, siyosat va insonparvarlik, davlat manfaatlar va shaxs taqdiri tushunchalarining uyg'unligi haqidagi murakkab savollarga javob izlashadi.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotining yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar va davr muammolarining badiiy ifodasi

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillari Birinchi va Ikkinchi jahon urushi oralig'ida yashab ijod etishgani bois urushda qatnashgan yozuvchilarning asarlarida bu mudhishlik bor bo‘yi basti bilan badiiy gavdalanitirilgan. Amerikalik adib Samuel Xaynsning ta’rifiga ko‘ra, Yo‘qotilgan avlod Birinchi jahon urushi davrida erta voyaga yetgan ijtimoiy avlod kogortasi (lot. cohors “muhofaza maydoni” [Gel’bke i dr., 1885]) edi. Ushbu kontekstda “yo‘qotilgan” so‘zi urushdan omon qolgan ichki muvozanati izdan chiqqan odamlarning sarson-sargardon, yo‘l-yo‘riqsiz ruhiy holatini anglatadi” [Hynes, 1990; 386]. “Yo‘qotilgan avlod” (fransuzcha *Génération perdue*, inglizcha *Lost Generation*) termini Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida yashagan avlodga nisbatan qo‘llanilgan, ikki urushni boshdan kechirgan jamiyatda yashagan odamlarning ayanchli qismati bir qator yozuvchilarning ijodida o‘z aksini topgan. “Yo‘qotilgan avlod” aslida o‘n sakkiz yoshida urushga ketib, jangda qatnashgan, urushdan keyin esa odatiy hayotga moslashishlari qiyin kechib, ko‘pchiligi o‘z joniga qasd qilgan. Bu avlod fojiasi 1929-yilda ingliz yozuvchisi R.Oldingtonning “Qahramonning o‘limi” (“Death of a Hero”) (1998), amerikalik yozuvchi E.M. Hemingueyning “Alvido, qurol” (“A Farewell to Arms”) (2018), nemis yozuvchisi E.M. Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (“All Quiet on the Western Front”) (1987) romanlarida tasvir obyektiga aylangan. Parijda yashab ijod etgan amerikalik adiba Gertruda Stayn “yo‘qotilgan avlod” atamasini Heminguey bilan bo‘lgan suhbatida qo‘llaydi, ya’ni unga “Siz hammangiz yo‘qotilgan avlodsizlar” deydi. Heminguey ushbu iborani ichkilikka ruju qo‘ygan, umidsiz yashaydigan yosh muhojirlarning hayotini aks ettiruvchi “The Sun Also Rises” (“Fiyesta”) (1926) romaniga epigraf sifatida ishlatgan. Demak, “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi Gertruda Stayn tomonidan kiritilgan va badiiy adabiyotda ilk bor Heminguey tomonidan qo‘llanilgan. Yuqorida keltirilgan ibora to‘satdan aytilgan bo‘lishiga qaramasdan, urushda qatnashganlarning yo‘qotishlari, azoblari va qayg‘u-alamlarini yozuvchilar ijodi orqali aniq ochib bera olgan [Zatonskiy, 1988].

XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg‘izligi, o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotishlik mavzusi 30-yillar G‘arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G‘arb adiblarning Birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o‘ta ta’sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi. Xususan, Y.A. Dichkovskaya, D.I. Latishevich va Y.V. Letyagoning “История американской литературы: «Потерянное поколение»” nomli maqolasida “Yo‘qotilgan avlod” adabiy yo‘nalish sifatida e’tirof etildi [Dichkovskaya i dr., 2018]. Adabiyotshunos va tarjimon M.Xolbekov bu holatni shunday baholaydi: “XX asrning yangi oqimlari, yangi g‘oya

va mavzulari, yangicha tafakkur va yondashishlar dastlab adabiyot va san'atda, keyinchalik esa ilm-fan va ijtimoiy hayotda o'z aksini topdi. Natijada adabiyot va san'at ahllari o'z davri ruhini ifoda etuvchi vositaga aylandi. XX asr adabiyoti va san'atidagi yo'nalishlarning ko'pchiligiga, xususan ekspressionizm, syurrealizm, "yangi roman", "ong oqimi", "absurd teatri"ga shaxsdagi shizofreniya, ya'ni iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketishi alomatlari, tushkunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita obyekti tarzida xizmat qildi" [Xolbekov, 2012].

Urush voqealarini tasvirlash yo'sini, o'zlari guvoh bo'lgan yoki frontortida bo'lib, jang tasvirlarini tasavvurida gavdalandirganiga ko'ra "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillari ikki guruhga bo'linadi:

1. Birinchi guruh – yoshi tufayli urushda qatnashmagan, ammo urush davri voqealari haqida asarlar yozgan adiblar – O.Xaksli, U.Folkner, G.Stayn.

2. Ikkinchi guruh – bevosita urush ishtirokchilari bo'lib, o'z shaxsiy hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, badiiy asarlar yaratgan adiblar – R.Oldington, V.Britten, E.M. Heminguey, F.S. Fitsdgerald, A.Barbyus, E.M. Remark.

"Yo'qotilgan avlod" adabiyoti ijodkorlari asarlarida uch asosiy mavzu ko'tariladi: dekadentlik, gender munosabatlar va bepushtlik hamda ideallashtirilgan o'tmish mavzulari edi. Ularning o'ziga xosliklari esa quyidagilardan iborat:

A. Dekadentlik – badiiy va ijtimoiy tafakkurdagi tushkunlik (tanazzul) holatlarining jamlanmasi bo'lib, ertangi kunga, insoniyat kelajagiga umidsiz qarash, inson aql-zakovati, kuch-qudrati, oliy xilqat sifatidagi mavjudligiga ishonchsizlik, mavjud voqelikni qabul qila olmaslikdir. "Yo'qotilgan avlod" adabiyotidagi tushkunlik shaxs va jamiyat o'rtasidagi yemirilishlar sabab yuzaga kelgan edi. Dekadentlik shohona bazmlarda ichkilikka ruju qo'yan, maqsadsiz ko'chalarda daydib yuruvchi asar qahramonlari portretida namoyon bo'ladi. "Yo'qotilgan avlod"ga "Jaz davri" an'alarining uyg'unlashuvi fenomeni dekadentlik hodisasini yanada yorqinroq aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. F.S. Fitsdgeraldning "The Great Gatsby" ("Buyuk Getsbi") (1925), E.Hemingueyning "The Sun also Rises" ("Fiyesta") asarlaridagi mavzu ko'lamida dekadentlik hodisasi ustuvorlik kasb etadi.

B. Gender munosabatlar va bepushtlik – urushga o'zlarini xuddi ritsarlarga qiyoslab ketgan yosh yigitlar uylariga ham ruhan, ham jismonan zaif bo'lib qaytdilar. Ular ota bo'lish baxtidan yiroq, o'zlarini ayollar oldida ojiz his qiluvchi aybsiz aybdor edilar. Ushbu zaiflik illatli odatlarga mukkasidan ketishga sababchi bo'ldi. Ular o'z ojizliklarini alkogol va giyohvand moddalarga qaramlik bilan yengishga harakat qilishgan.

D. Ideallashtirilgan o'tmish – sobiq urush qatnashchilarining butun o'y-xayoli ideal o'tmish kechinmalari bilan bog'liq edi. Kelajak mavhum, asosan salbiy chizgilar bilan to'la, undan hech qanday umid yo'q. O'sha mukammal o'tmish ular uchun yetib bo'lmas, kelajak esa aslo ahamiyatsiz edi.

"Yo'qotilgan avlod" adabiyotining jahon adabiyotshunosligida mavjud adabiy hodisalardan farqli va o'xshash qirralarini, taniqli namoyandalarining asarlari mavzu va g'oyasining universalligini, adabiy-estetik evolyutsiyasini kuzatish uchun

R.Oldington va V.Britten asarlari tahlilga tortiladi. Ular badiiyatining o'ziga xos jihatlari – yozuvchilarning badiiy olami, badiiy asarni yaratishdagi san'atkorligi, obraz yaratish, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida mohirona foydalanish, asar syujeti va kompozitsiyasini to'g'ri va tizimli shakllantirish mahorati adiblarning asarlari misolida o'rganiladi. Asar yaratilishiga xizmat qiladigan barcha badiiy unsurlarning genezisi, ijodkorlarning badiiy olami va mahorati tarixiy-adabiy jarayonga va davr ruhiga bog'lab ochildirilishini inobatga olib, tarixiy poetika nuqtayi nazaridan R.Oldington va V.Britten ijodining mohiyatini ochishda “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti vakillari hayot yo'li va ijodiy merosi haqida tadqiqotimizda ma'lumot berishni joiz hisobladik.

Front va front ortidagi ayollar obrazining ijtimoiy-ruhiy talqini

Adabiyotda jahon urushi mavzusi xususida tadqiqotlar va badiiy asarlarning eng asosiy mohiyatiga nazar solinsa, erkaklarning askar sifatida jangda qatnashishi va mardona halok bo'lishi asosiy mavzu ekanligi e'tirof etiladi. Ushbu tadqiqot esa “Yo'qotilgan avlod” adabiyoti namunalarida “urush” va “ayollar” mavzusini o'rganishga qaratilganligi hamda bunday janglarda ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq aziyat chekkanliklari ularning ruhan va jismonan azoblanganliklari bilan xarakterlanadi. Tarixda ayollarning armiyada xizmat qilishi miloddan avvalgi IV asrlarda Afina va Spartada yunon qo'shinlari safida kuzatilgan. Keyinroq Iskandar Zulqarnayn yurishlarida ham ayol ishtiroki haqida ma'lumotlar bor.

Alisher Navoiy asarlarida ham amazonka ayollariga xos chizgilarni uchratish mumkin. Uning “Saddi Iskandariy” asaridagi kanizak Lo'bat Chin (Chin Qo'g'irchog'i) obrazi ko'p jihatdan amazonkalarni eslatadi. Iskandar Mag'rib o'lkasida vahshiylar to'dasi bilan jang qilishiga to'g'ri keladi. Jangga Lo'bat Chin erkakcha libos kiyib, yuziga niqob tutgan holda jangga tushadi [Ko'chimov, 2021; 49].

Rus tarixchisi Nikolay Karamzinning ma'lumot berishicha: “Slavyan ayollar ba'zan otalari va erlari bilan o'limga tik boqib urushga borganlar: masalan, 626 yilda Konstantinopol qamali chog'ida yunonlar o'lik slavyan askarlari orasidan ayol jasadlarini ham topishgan. Onalar farzand tarbiyasida ularni jangchi bo'lishga tayyorlaganlar” [Karamzin, 1991].

Sovet armiyasida qariyb bir millionga yaqin ayol jang qilgan. Ular, jumladan, “sof erkakcha” hisoblangan harbiy kasblarni ham egalladilar. Hatto lisoniy muammolar ham tug'ila boshladi: shu paytgacha qadar “tankchi”, “piyoda askar”, “avtomatchi” kabi so'zlarning ayol jinsini ifodalovchi variantlari bo'lmagan, chunki ularni hech qachon ayol kishi bajarmagan. Muannas jinsdagi (Har ikki jins vakillarini birdek anglatuvchi – Sh.Ch.) so'zlar aynan o'sha yerda, urushda paydo bo'lgan [Aleksiyevich, 2018; 3-4].

Birinchi jahon urushi va unda ayollarning o'rne, ahamiyati mavzusiga bag'ishlangan asarlar jahon adabiyoti namunalarining ajralmas qismiga aylangan. Yuqorida Birinchi jahon urushida qatnashgan adabiyot vakillari va front orti, ya'ni urushda qatnashmagan yozuvchilarning asarlaridagi o'zaro farqli va mushtarak jihatlarni qiyoslash barobarida “Yo'qotilgan avlod” adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari aytib o'tildi. Birinchi jahon urushi davrida ayollar roli mavzusiga bag'ishlangan asarlardagi mavzu, g'oya, motivlarda mushtaraklik bo'lib, ularni birlashtirib turuvchi omil urush

manzaralari edi. Bu yo‘nalishda ijod qilgan yozuvchilarning ko‘pchiligi, asosan, urushda qatnashmagan yozuvchilarni tashkil qiladi, shuningdek, ular zamonaviy adabiyot vakillari edilar.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollarni va ularning jamiyatdagi mavqeyini realizm prinsiplari yordamida mohirona tasvirlay olgan adiba Vera Britten (1893-1970) hisoblanadi. U Angliya viloyatlaridan birida joylashgan Bakston shahrida tug‘ilib o‘sgan. U ota-onasining dastlabki e‘tirozlariga qaramay, Oksford kolleji Somervillga boradi. Lekin ko‘p o‘tmay, Birinchi jahon urushi boshlanib qoladi va u ko‘ngilli hamshira sifatida ishlash uchun o‘qishini to‘xtatadi. Urushdan keyin u Oksfordga qaytib keldi va 1922-yilda Londonda yozuvchilik bilan shug‘ullanadi. Birinchi jahon urushi vaqtida V.Britten London, Malta va Fransiyadagi harbiy kasalxonalarda armiyaning ko‘ngillilar otryadi hamshirasi lavozimida xizmat qilgan. Urush davomida u o‘zining urushda ko‘rgan-kechirganlari va tajribalari haqida kundaligiga yozib borgan. Keyinchalik yozuvchi memuarida o‘z xotiralari va xat yozishmalarini keltirgan. Uning qallig‘i, akasi va ikki nafar eng yaqin do‘sti urushda vafot etishadi, shundan keyin uning qayg‘usi V.Brittenni butunlay patsifizm tomonga burib yubordi.

V.Britten o‘z faoliyati davomida e‘tiborini ko‘proq ayollarning huquqlari va jamiyatdagi rollarini himoya qilishga qaratgan. Shuningdek, u ta‘lim olishda, ish bilan ta‘minlanishda, erkaklar bilan teng ish haqi olishda, ijtimoiy xizmatlar va shu kabilarda ayollar teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlari kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Yozuvchi, ayniqsa, ayollarning nikoh va uy xo‘jaligidagi rolini o‘zgartirish tarafdori edi: u ayollarning an‘anaviy uy ishlarini bajarishdan xalos bo‘lishlarini, faqat hayoti davomida bir xil yumush bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, uydan tashqaridagi mas‘uliyatli vazifalarni bajarishlarini, o‘zlarining kasblari va pullari bo‘lishdek imkoniyatga ega bo‘lishlarini yoqlaydi. Shuningdek, 1923-yilda V.Britten Jenevadagi to‘rtinchi Liga assambleyasida feministik gazeta “Time and Tide”ning rasmiy vakili bo‘ldi va 1953-yilda u Xalqaro ayollar ligasida qatnashdi.

Dunyo tamaddunida tub burilish yasagan ushbu tarixiy davrda, ya‘ni Birinchi jahon urushida ayollarning mavqeyi va jang maydonlaridan tashqarida – kam sonli erkaklar bilan qolgan jamiyatda ularning barcha jabhalarda ko‘rsatgan qahramonliklari haqida ma‘lumot beriladi. Ushbu manbaning eng qimmatli tomoni nafaqat Yevropa ayollari taqdiri, balki Afrika, Osiyo, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Shimoliy Amerika hududidagi ayollar hayotida Birinchi jahon urushining salbiy oqibatlarini obyektiv fonda yoritiladi [Grayzel, 2024].

Birinchi jahon urushi xususida yaratilgan adabiyotlardagi tarixiy ma‘lumotlarning haqqoniyligi masalasida muhim ahamiyatga ega yana bir manba Sofi de Shapdriyver tomonidan yozilgan Germaniyada hibsga olinib, qatl etilgan ayg‘oqchi ayol Gabriella Petit taqdiridan so‘zlovchi 2015-yilda chop etilgan “Gabrielle Petit: The death and life of a female spy in the First World War” (“Gabriella Petit: Birinchi jahon urushidagi josus ayol hayoti va o‘limi”) asaridir. G.Petit avtobiografiyasiga asoslangan ushbu kitobda muallif Yevropa kontekstida gender, ijtimoiy qatlam va qahramonlik muammolarini Birinchi jahon urushidan kelib chiqib yoritishga harakat qiladi. Shu

o'rinda tadqiqotchi X.Muxammedova ayol xarakterini polifonik o'rganishda ijtimoiy, gender va biografik jihatdan yondashish lozimligini o'rinli ta'kidlaganini e'tirof etishimiz joiz [Muxammedova, 2019; 72].

So'nggi yillarda badiiy asarlardagi ayollar obrazi, ularning oilada va jamiyatda tutgan o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlar o'zbek adabiyotshunosligida ham olib borilayotganligi mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni ko'rsatadi. Misol uchun, X.Lutfiddinova [Lutfiddinova, 1994], U.Q. Ko'chimov, N.Muxammedova [Muxammedova, 2019], X.Muxammedova, U.Fayzullayeva [Fayzullayeva, 2020] larning izlanishlariga tayanib, psixologizm prinsiplari va vositalari asosida front va front orti ayollarining ruhiyatidagi evrilishlar R.Oldington va V.Britten asarlari misolida tadqiqqa tortildi. Ammo farqli ravishda, faqat tush kategoriyasi "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillari R.Oldington va V.Britten asarlarida mavjud emasligi aniqlandi. Har bir milliy adabiyotdagi ayollar obraziga kelsak, u shu millatning fitratiga, davr ruhiga muvofiq aks etadi va idrok qilinadi. Shu bois ham, bir xil sharoitda bir xil harakat qiladigan xarakterlar har qaysi adabiyotda har xil gavdalanadi [Isomiddinov, 2011; 375].

Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti vakillari R.Oldington va V.Britten asarlari mohiyatan obyektiv va subyektiv munosabatlarni umumlashtiradi. Har ikkala yozuvchi o'zlari guvoh bo'lgan voqealarni bayon etish barobarida, subyektivlik nuqtayi nazaridan, zamonga va voqealarga o'z shaxsiy munosabatlarini ham bildiradilar. Xususan, tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning mohirona bog'langanligi ijodkorlarning badiiy mahorati yuksakligidan dalolat beradi. Nafaqat R.Oldington va V.Britten, balki "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining boshqa vakillari hamda Birinchi jahon urushi va ayollar mavzusiga bag'ishlab ijod qilgan yozuvchilarning ham xulosasi bir xil – urush tugagani bilan uning talafotlari jamiyat hayotida avlodlarning tushunarsiz hamda baxtsiz taqdirilarida kuzatilaveradi. Urush yoqqan alanga o'chmaydi, o'chsa ham uning uchqunlari avloddan avlodga o'taveradi.

TADQIQOT METODLARI

Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi muammosi R.Oldington va V.Britten asarlari misolidagi tahlili jarayonida peyzaj, portret, dialog, monolog, psixologizm kabi ruhiy tahlil vositalarining ayol xakteri tabiatini ochishdagi ahamiyati dinamik, analitik, sinkretik prinsiplar asosida izohlanadi va ayni jarayonda qiyosiy-tipologik, madaniy-tarixiy, biografik, psixologik, struktural tahlil usullari muhim ahamiyat kasb etdi:

A. Peyzaj – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq (yopiq) makon tasviri [Quronov va boshq., 2013; 220]. "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida jang maydonlarining tasviri, urush va urushdan oldingi tabiat manzaralari asar qahramonlarining ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Misol uchun, adabiyotshunos G'.Murodov badiiy asar qahramoni ruhiy holati bilan bog'liq tabiat tasvirini a) qahramon (personaj) kayfiyatiga mushtarak peyzaj; b) qahramon kechinma va ruhiy holatlariga qarama-qarshi bo'lgan manzaralar kabilarga ajratib, talqin qiladi [Murodov & Temirova, 2008; 32].

B. Portret – personajning soʻz vositasida tasvirlangan tashqi koʻrinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-koʻz ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), oʻquvchi tasavvurida jonlanadigan toʻlaqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri [Quronov va boshq., 2013; 226]. V.Britten va R.Oldington asarlarida portretning har ikkala statik va dinamik turlari mavjud, yaʼni statik – personaj asarga endi kirib kelganida beriladigan tasvir usuli, dinamik esa butun asar davomida boshqa qahramonlarning dialog va monologlarida oʻsha qahramonning tashqi koʻrinishiga xos detallarning berilib borishi.

D. Dialog – ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti boʻlib, badiiy asarda voqealar rivojining muhim komponentlaridan biri sanaladi. Monolog – yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, oʻzgalar replikalari bilan boʻlinmagan nutqi [Quronov va boshq., 2013; 179]. Monologlar obrazlarning ruhiy holati va ularning asl haqiqatini ochishda asosiy vazifani bajaradi.

E. Ruhiyat – qahramonlarning ichki olami, hissiy kechinmalari jamlanmasidir. Personajlarning ruhiyati asarda sodir boʻlayotgan voqealar dinamikasiga asosan oʻzgarib boradi. “Yoʻqotilgan avlod” adabiyotiga mansub asarlardagi ayol obrazlarining ruhiyati ayrim oʻrinlarda oʻquvchining oʻsha personaj xususida xulosalar chiqarishiga toʻsqinlik qiladi, chunki ayollar ruhiyati ham oʻzgaruvchan, ayni damda ayolni yo baxtli va yo baxtsiz deyishning imkoni yoʻqdek. Atrof-muhit va jamiyat bilan ham aks taʼsirga ega boʻlishlik ushbu tendensiya asarlaridagi ayol obrazlarining oʻziga xos qirralarini ochib beradi.

F. Dinamik prinsip – romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda koʻrinishini tasvirlash. Hissiyotning dinamik ravishda (bosqichma-bosqich) rivojlanib borishi. Rivojlangan sayin qahramon qalbi oʻzining borligʻini namoyon etadi.

G. Analitik prinsip – qahramonlarning ruhiy dunyosini ularning xatti-harakatlari, qiliqlari orqali ochib berish bilan birga, fikrlar va hislar oqimini, dialektikasini ham koʻrsatib berish.

Olim A.Ulugʻovning fikricha, “Adabiyot asarlari ularda qoʻllangan oʻxshatish, sifatlash kabi badiiy sanʼatlar yoki koʻtarilgan masala-muammolari tufayli emas, avvalo, adabiy qahramonlari orqali ijtimoiy-siyosiy taʼsir kuchiga ega boʻladi. Doston, roman, qissa, hikoyalardagi badiiy sanʼatlar, syujet voqealari, asar kompozitsiyasi tarkibidagi peyzaj, portret kabi qismlar adabiy qahramonlar olamini taʼsirchan koʻrsatish vositasi sanaladi. Asarda bayon etilgan turli voqea-hodisalar, eʼtibor qaratilgan har xil muammolar, ijtimoiy-siyosiy masalalar esa adabiy qahramon timsolida muayyan davr kishilarning dardi, tashvishlarini aks ettirish omili hisoblanadi” [Ulugʻov, 2011; 464].

R.Oldington va V.Britten ayni zamonda, bir tarixiy sharoitda yashab, ijod etishgani bois ular tomonidan yaratilgan asarlarda aks attirilgan voqealargina emas, balki ruhiy holat manzaralarida ham oʻsha davrning tamgʻasi bor. Binobarin, tahlilga tortilgan har qanday badiiy asarning yaratilish davri va yaratilishiga turtki boʻlgan sababni oʻrganmay turib, asarni teran tahlil etish va qahramonlari qismati toʻgʻrisida haqqoniy xulosaga kelish imkonsiz. Asarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilmasdan, faqat estetik mezonlar asosida tekshirish shaxs va jamiyat muammolarini, qahramonlar

ruhiy holatini tushunmaslikka sabab bo'ladi. Jumladan, ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi R.Oldingtonning "Qahramonning o'limi" ("Death of a Hero") (2013) va V.Brittenning "Yoshlik vasiyati" ("Testament of Youth") (1933) asarlari misolida maqolaning quyidagi bo'limida ochib beriladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida urushning obyektiv tasvirini tahlil qilishda R.Oldington va V.Brittenning peyzaj va portret yaratish mahoratidagi o'ziga xoslik natijasida ayol va erkak ijodkorlar uslubidagi farqli chiziqlar yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. R.Oldington va V.Britten ayni zamon va makonni badiiy asar kontekstida tanlasalar-da, qahramon ruhiy olamining keng ko'lamli ifodasi V.Britten asarlarida ustunlik qiladi. "Qahramonning o'limi" va "Yoshlik vasiyati" romanlarida umumiy mavzu Birinchi jahon urushi oqibatlari bo'lib, R.Oldington asarida bosh qahramon sifatida tanlangan erkak kishining notinch va mushkul damlardagi matonati, V.Brittenning romanida esa asosiy personaj ayolning xarakter-xususiyatlari, murakkab davrda ayollik shuurini saqlay olgan nozik xilqatning tiynati badiiy usulda gavdalantiriladi. Ammo har ikkala asarda ham urush sabab ayol va erkak o'rtasidagi nozik tuyg'ularning barham topishi va ba'zida unutilib ketishi mohirona tasvirlanadi.

"Qahramonning o'limi" va "Yoshlik vasiyati" romanlarida urushning obyektiv tasviri

"Qahramonning o'limi" romani "Yo'qotilgan avlod" adabiy yo'nalishiga mansub bo'lib, unda muallif qarashlarining negizida suiqasd va qotillikka to'la olamdan hafsalasi pir bo'lish kayfiyati ustuvorlik qiladi. Muallif o'z romanini urush dahshatlarini boshidan kechirib, bu olamni tark etgan avlod uchun motam qo'shig'i deb nomlashini ta'kidlaydi.

Romanning shakli borasida so'z yuritilarkan, R.Oldingtonning o'zi ushbu kitobni "jaz yo'nalishidagi roman" deb atagan. Adib romanining so'zboshida Xolkott Gloverga yozgan xatida: *"This book is not the work of professional novelist. It is apparently, not a novel at all. Certain conventions of form and method in the novel have been erected, I gather, into immutable laws, and are looked upon with quite superstitious reverence. They are entirely disregarded here"* [Aldington, 2013; 23] deb izoh keltiradi. Xuddi shu o'rinda u o'z kitobini *"This book is really a threnody, a memorial in its ineffective way to a generation"* deb ham ataydi / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *"Bu kitob – professional yozuvchining ishi emas. Ehtimol, bu umuman roman ham emasdir. Romanda o'ziga xos shakl va uslublardan foydalandim, shuningdek, xurofiy e'zozda bo'lgan o'zgarmas qoidalarni to'pladim. Ammo bu yerda ular butunlay e'tiborga olinmaydi"*.

Shuningdek, asarning "jaz yo'nalishidagi roman" deb atalishiga asoslar mavjud bo'lib, rus adabiyotshunosi M.Urnov unga "Sinkop ritmi, jo'shqin ifoda "Qahramonning o'limi" romani uslubiga xos xususiyatdir. Bu ifoda qarama-qarshiliklarning keskin kombinatsiyasi, ularning tez o'zgarishi va o'tishlari asosida yuzaga keladi: qarama-qarshi ifoda shakllari – ehtirosli jurnalistika va vazmin tasvir, ayblovchi pafos va kaustik istehzo; qarama-qarshi kayfiyat – melanxoliya, g'ayratli,

umidsizlikka to‘la; matnning impulsiv artikulyatsiyasidir” [Urnov, 1968; 31], deya ta’rif beradi.

R.Oldington va V.Britten uslubidagi universallik oddiy tildan foydalanish, yangi ritmning mavjudligi, mavzuning erkinligi hamda tasvirning aniq taqdim etilganligi bilan izohlanadi.

R.Oldington romanni yozishda imajizm qonuniyatlariga tayangan holda, uch qoidadan iborat yozish texnikasiga amal qiladi:

1) subyektiv yoki obyektiv aloqadorlik mavjud shaxs, predmet va makonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lish;

2) bayonga hech qanday naf keltirmaydigan so‘zlardan foydalanmaslik;

3) ritmik o‘ziga xoslik: voqealar ketma-ketligini emas, balki musiqiy jumlar ketma-ketligini hosil qilish.

“Qahramonning o‘limi” romani – ayol, jamiyat va urush triadasi haqidagi falsafiy, axloqiy, ijtimoiy muammolar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan, kuchli mamlakatlar tomonidan dunyoni taqsimlab olishga qaratilgan manfaatlar fojiasi hamda bir qancha mamlakatlarning zulm va istibdod ostida qolish oqibatlari aks etgan asar hisoblanadi.

Urush ishtirokchilari nafaqat ruhan, aqlan noto‘g‘ri yo‘lda edilar, balki ular jismoniy tomonlama ham nomaqbul harakatlar bilan mashg‘ul bo‘lganliklari asar roviysi tomonidan quyidagicha tasvirlanadi: *“There was no sodomy about it. It was just a human relation, a comradeship, an undemonstrative exchange of sympathies between ordinary men racked to extremity under a great common strain in a great common danger. There was nothing dramatic about it. Bill and Tom would be in the same section, or Jones and Smith subalterns in the same company ...”* [Aldington, 2013; 47] / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *“Bu yerda hech qanday sodomiya haqida gapirishga o‘rin yo‘q. Bu shunchaki insoniy munosabat, o‘rtoqlik, o‘zaro muhabbat belgilarining namoyish qilinmaydigan oddiy odamning katta xavf ostidagi ikkinchi odamga ko‘rsatgan hamdardligi deb tushunish kerak. Bunda dramatik narsa yo‘q. Bil va Tom bir bo‘limga tushib qolishlari yoki Jon va Smit bir guruhda bir-biriga bo‘ysunishi kerak bo‘lgandek holat ...”*.

Urush insoniyatning nafaqat ijtimoiy, siyosiy hayotiga, balki ma’naviy olamiga ham keskin halokatlarini yog‘dirgani, axloqiy poklik, sadoqat, inson ruhining ma’naviy yuksakligi va haqiqiy insoniy fazilatlarga chek qo‘yganini yozuvchi haqiqatga sodiqlik mezoni asosida quyidagicha tasvirleydi: *“Of course, this sort of friendship was stronger in France than in England, more vivid in the line than out of it. Probably a man must have something to love – quite apart from the “love” of sexual desire. (Prisoners are supposed to love rats and spiders.) Soldiers, especially soldiers overseas in the last war entirely cut off from women and friends, had perforce to love another soldier, there being no dogs available. Very few of these friendships survived the Peace”* [Aldington, 2013; 47] / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *“To‘g‘ri, bu kabi munosabatlar Angliyaga qaraganda, Fransiyada ancha kuchliroq va tashqaridan qaraganda, ko‘proq ko‘zga tashlanadigan hodisadir. Ehtimol, har bir erkakning jinsiy ehtiyojdan tashqari yana bir sevishi mumkin bo‘lgan narsaga egalik qilishi*

lozimdir (Mahbuslar sichqonlar va kalamushlarni yaxshi ko'radi degandek). So'nggi jangga ketayotgan xorijdagi askarlarning butunlay ayollardan va do'stlaridan uzoqda ekanliklarining o'zi ularning boshqa askarni sevishga majbur bo'lganligini ko'rsatadi, chunki bu yerda kuchuklarni ham topishning imkoni yo'q edi. Tinchlikka erishilgach, bunday do'stlik aloqalari juda kam sonlarda saqlanib qoldi".

V.Brittenning "Yoshlik vasiyati" romani biografik va memuar asar hisoblanib, muallifning feministik g'oyalari va feminizm haqidagi nutqlari tarixiy kontekstda muhim ahamiyat kasb etadi. V.Britten mazkur asarida Birinchi jahon urushidagi iztirobli voqealar, yaqinlarini yo'qotishda chekkan azoblari haqida yozgan. "Yoshlik vasiyati" romanini yozish haqidagi dastlabki g'oyaning paydo bo'lishi 1916-yil martiga borib taqaladi, o'sha vaqtda V.Britten ukasi Edvardga shunday deb yozgan edi: "... Agar urush menga rahm qilib, tirik qolsam, yagona maqsadim to'rt kishining hikoyasini kitobda abadiylashtirish bo'ladi..." [Bishop & Bostridge, 1998; 242].

"Yoshlik vasiyati" romani "Yo'qotilgan avlod" adabiyotining afsonaviy klassik timsoli bo'lib, avlodlarning tushunib bo'lmaz ruhiy va jismoniy tanazzuli sabablarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. V.Brittenning aka-ukasi va do'sti urushning dastlabki davrida davlat maktablari yoki Oksbrijdan to'g'ridan-to'g'ri Italiya va Fransiya'dagi o'lim maydonlariga yuborilgan kichik zobitlar edi. Ushbu kichik zobitlarning demografik sinf sifatida o'lim xavfi darajasi boshqa ofitserlarga yoki umuman armiyaga qaraganda ancha yuqori edi. V.Brittenning sevimli ukasi va ko'ngil qo'ygan yigiti tahsil olgan Appingem maktabi urushda xizmat qilgan o'z o'quvchilaridan beshdan birini yo'qotdi. Malvern yepiskopi Malvern kollejining xususiy maktabidagi urush yodgorligini ochar ekan, sobiq talabalarining urushda halok bo'lganliklarini "butun avlodning yo'q qilinishi deb ta'riflash mumkin" deydi [Kernot, 1927; 136]. Vaholanki, ba'zi manbalarda yo'qotilgan avlod mavjudligi statistik jihatdan to'liq tasdiqlanmagan [Winter, 1986]. Ammo kichik zobitlarning nomutanosib ravishda yuqori o'lim ko'rsatkichi hisobga olinsa, V.Brittenning urushda halok bo'lganlar haqida "ingliz jamiyatining eng ziyoli va kuchli qatlami yo'q bo'lib ketdi" deyishi hech qanday mubolag'aga kirmaydi. Shuningdek, Robert Uol "yo'qotilgan avlod"ga, ya'ni tirik qolganlarga g'amxo'rlikning hojati yo'qligini, har safar ko'ngil berib, ularga hamdard bo'lishlik unutilgan yaralarning qayta tiralishiga sababchi ekanligini iztirob bilan tushuntirishga harakat qiladi [Wohl, 1980; 115].

V.Britten o'z asarini yozishda kelajak avlodni sodda idealizm va urushning soxta jozibasiga bo'ysunish xavfidan ogohlantirishdek ijodiy maqsadni ko'zlagan edi. "Yoshlik vasiyati"ni urush haqida asarlar yozgan erkak memuarчилarnikidan ajratib turadigan farqlari salmoqli bo'lib, adiba urushni ayol nazdida, ayollarga xos hissiy kechinmalar asosida tasvirlaydi. Masalan, Edmund Blanden urushning istehzoli shafqatsizligini chuqur tragizm orqali ochib berish orqali urushning befoydaligi va tushunarsizligini aks ettirishga harakat qilsa, V.Britten esa aksincha, urush nima uchun va qanday sodir bo'lganligi, shuningdek, kelajakda buni qanday oldini olish mumkinligini asosli tushuntirishga harakat qiladi. U o'z asarlarida XX asr boshlarida ingliz ayollarining hayoti va maqomining o'zgarishi, ularning jamiyatdagi o'rni xususida bahs yuritadi. Shuningdek, ayollarning yangi jamiyatni rivojlantirishga,

ularning madaniy va ma'naviy mavqeyini mustahkamlashga qo'shgan shaxsiy hissasi qanday bo'lganligi haqida so'z yuritiladi [Brittain, 1933; 661]. Mazkur esdaliklarning bir xil darajadagi muhim maqsadi esa urushni qancha odamlarning hayotiga zomin bo'lganligini ko'rsatishdan iborat edi.

Tahlilga tortilgan romanlarning mavzu va g'oyasidagi universallik shundan dalolat beradiki, R.Oldingtonning "Qahramonning o'limi" va V.Brittenning "Yoshlik vasiyati" romanlarining xulosasi bitta, ya'ni urushda g'oliblar bo'lmaydi. Yozuvchilarning asarlarida urushdan tirik qaytganlar jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha olmaydigan, nosog'lom, shikasta ruhiyati bilan faqatgina o'tmish voqealari bilan yashayotgan "yo'qotilgan avlod" ekanliklari ta'kidlanadi. Urush qancha insonlar umrining gullagan davrini, orzu-istaklarini va kelajakka bo'lgan ishonchlarini o'g'irladi. Urushga bormasdan ham uning qurboniga aylanganlar esa son-sanoqsiz. Har ikkala ijodkor ham vatanni himoya qilish uchun kimnidir o'ldirib "vatanparvar" bo'lgandan, urush nimaligini bilmaydigan "insonparvar" bo'lish afzal degan g'oyani ilgari suradilar.

Ayol obrazini yaratishda badiiy ideal konsepsiyasi

Badiiy adabiyotda "obraz" tushunchasi inson ongida "sobit" bo'lgan ko'p qirrali umumiy axloqiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda "badiiy tasvir" turlicha talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun ham olimlar bu tushunchalarni o'rganishda turli soha metodlaridan keng foydalanadilar. Adabiyotda esa bu asar kompozitsiyasidan tashqarida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan yozuvchining dunyoqarashi, uning badiiy tushunchalarilari orqali talqin etiladi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldosh badiiy asar mazmunini anglatishda muallif ideali muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi: "Badiiy asarlarda personajlarning faqat o'zigagina tegishli, muallifga mutlaqo daxli bo'lmagan qarashlar ham ko'p ifoda etiladi. Ammo adabiyot tanuv ilmi va adabiyot o'qitish amaliyotida u yoki bu personajning biror so'z yoxud fikrini butun asarning g'oyasi tarzida qabul qilish hollari tez-tez uchrab turadi. Shuni ko'zda tutish kerakki, juda kam hollarda muallif asar g'oyasi yoki shu g'oyaning biror qismini ifodalashni qahramonga ishonadi, buning uchun muallifning asardagi o'z qahramoni bilan kuchli darajada birlashib ketishi, o'ziga xos *avtobiografizm* kerak bo'ladi" [Yo'ldosh & Yo'ldosh, 2016; 69]. Har ikki yozuvchining badiiy ideal konsepsiyasi avtobiografizm ruhi bilan sug'orilgan. Ular o'zlari guvoh bo'lgan va real olam voqealarining badiiy ifodasini yaratishgan. Shuni ta'kidlash joizki, R.Oldington va V.Britten badiiy ideali mualliflarning estetik qarashlarini yorqin ifoda etgan bosh qahramon obrazlaridir. Ijodkorlarni qo'liga qalam olishga da'vat etgan ibtido estetik ideal bo'lib, ular yaratgan badiiy timsollar esa estetik idealni ro'yobga chiqarish vositasi hisoblanadi.

Tadqiqotchi A.Axmedova ideal qahramonga shunday ta'rif beradi: "Ideal qahramon kamchilik va nuqsonlardan butunlay xoli inson obrazi emas, balki muallif estetik qarashlarini yorqin ifoda etgan bosh qahramon obrazi hisoblanadi. Ideal qahramon muallifning haqiqat, go'zallik va ezgulik haqidagi orzularini aks ettiradi. Ideal qahramon obrazi idealni, xususan, muallif idealini ifodalaydi. Badiiy ijod estetik idealni ifodalash ehtiyojidan kelib chiqar ekan, tabiiy ravishda, ayrim obrazlarda

uning ko‘proq yoki yorqinroq aks etishi kuzatiladi” [Axmedova, 2021; 29].

V.Britten “Yoshlik vasiyati” romanini Katerina ismli qizaloqning sehrigar ayol bilan uchrashishi haqidagi afsonaviy hikoya bilan boshlaydi. Ertakdagi qizaloqdan sehrigar ayol: *“Which would you rather have – a happy youth or a happy old age?”* deb so‘raydi [Brittain, 2005; 27] / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *Qaysi birini tanlagan bo‘larding baxtiyor yoshlikmi yoki baxtiyor keksalik?*. Katerina bo‘lsa: *“If I say a happy youth, then I shall have to suffer all the rest of my life. No I will bear trouble now, and have something better to look forward to”*. So she looked up and said: *“Give me a happy old age”* [Brittain, 2005; 27] dedi / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *“Agar baxtiyor yoshlikni tanlasam, unda umrimning qolgan qismini dard-u hasratda o‘tkazaman. Yaxshisi, hozir qiyinchiliklarga chidamayman va kelajakdagi yaxshiliklarni sabrsizlik bilan kutaman”*. U tepaga boshini ko‘tarib: *“Menga baxtiyor keksalikni bering”*. Ushbu afsona yosh qizaloq Veraning o‘zi haqida ekanligi va urush sabab, u va uning tengdoshlari baxtli yoshlikdan bebahra qolganliklariga adiba mohirona urg‘u beradi.

V.Britten o‘z asarida qizlar uchun maxsus maktabda tahsil olganini eslab, muallif-rivoyachi tilidan hatto urushgacha bo‘lgan maktab formasini tasvirlab, bunday forma unga yoqmagani va uning g‘azabini keltirganini ta’kidlaydi. Unga o‘tmish qoidalari begona bo‘lib, uni junli ichki kiyim, qora kashmir paypoq, jun libos kiyishga majbur qildi. Jumladan, u to‘q mato shimlar, flanel yubkalar va boshqa narsalar, o‘sha vaqtga xos narsalar haqida mulohaza yuritadi. U bu orqali o‘sha davr qiz-ayollarining ichki didi va ruhiyatini ochib berishga harakat qildi. V.Britten o‘z davridagi voqelikni tasvirlashda muallif-rivoyachi nutqidan unumli foydalanadi. Asardagi “mahalliy va oilaviy e’tibor” metaforasi orqali ayollarning barcha umidlari, intilishlari va shaxsiy munosabatlarini ko‘rsatib bera olgan.

Adiba o‘z asarlari orqali ayol va uning urushdagi hamda urushdan keyingi real portreti to‘laligicha ochiqlanmayotganligidan aziyat chekadi hamda ushbu holatga quyidagicha munosabat bildiradi: *“Urush hayotning bir bosqichi bo‘lib, unda ayollar tajribasi erkaklarnikidan tubdan farq qiladigan davr edi va men asosan ayollarga tegishli bo‘lgan jihatlarini e’tiborsiz qoldirayotgan urush yillarining tasvirlari to‘liq emasligini ta’kidlaganimda, azob-uqubat va xizmat tengligini da’vo qilmayman. Urushni o‘z hayotida asl qiyofasi bilan ko‘rsatib, o‘z avlodi uchun ahamiyatini yana bir bor yoritadigan ayol jim va u hanuz sukut saqlamoqda”* [Brittain, 1991; 132]. Adiba bu fikrlarni yozganida 1931-yilda u o‘z kitobini boshlagan va o‘zi tasvirlagandek, badiiy ideali ayol bo‘lishini niyat qilgan edi. Albatta, “Yoshlik vasiyati” ayolning harbiy tajribasi haqidagi shu vaqtga qadar yaratilgan yagona tipdagi hikoyadan uzoq edi, garchi u eng mashhur bo‘lgan bo‘lsa ham.

Ta’kidlash joizki, V.Brittenning “Yoshlik vasiyati” asarida erkaklar obrazlar tizimida markaziy o‘rinni egallaydilar. Garchi u kitobni yozishni boshlaganida ayollar mavzusini ilgari surgan bo‘lsa-da, keyinchalik ikkala jinsning davrga, urushga nisbatan munosabatlarini yaxlit syujet chizig‘ida tutashtirdi. Shubhasiz, Birinchi jahon urushi adabiyotichalik boshqa hech narsa qahramonlik illyuziyalarining yo‘q qilinishi bilan o‘zini gunohkorlikdan soqit qilinishidan tortib, omon qolganlarning umidsizlikka, tushkunlikka tushishigacha bo‘lgan yo‘lni va marhumlarning behuda

qurbon bo'lishganini shu qadar aniq tasvirlab bera olmaydi.

Umuman olganda, ingliz adabiyotida chuqur iz qoldirgan V.Britten o'zining "Yoshlik vasiyati" asari orqali ruhiyatida ichki ziddiyat ifodalangan ayol obrazini yarata olganligi bilan boshqa yozuvchilardan tom ma'noda farqlanadi. V.Brittengacha bo'lgan yoki undan so'ng yashab ijod etgan yozuvchilar ham o'z asarlarida ayol obrazini yaratganlar, ammo ushbu yozuvchi ulardan farqli ravishda ayol qiyofasida davr ruhining o'ziga xos chizgilarini aniq va ravshan ko'rsatib bera olganligi bilan ham ajralib turadi. Bosh qahramon timsolida ikki xil xarakter-xususiyat umumlashtiriladi, ya'ni asarning boshida tasvirlangan Veraning tiynatidagi dinamika voqealar rivoji mobaynida vertikal rivojlanadi. Tantiq, qaysar fe'lli, turmushga chiqishni umuman xohlamagan, o'z erkini bo'g'ishlariga chidab turolmaydigan, o'z maqsadi yo'lida tinimsiz harakat qiladigan Vera urush iztiroblari sabab, chuqur mulohazali, bosiq, vazmin, do'stga ham, dushmanga ham birdek yordam qo'lini cho'za oladigan olijanob Veraga aylanadi. V.Brittenning "Yoshlik vasiyati" asarida ayol obrazlari realizm va psixologizm bilan boyitilgani, bir tomondan, yozuvchining yuksak mahorati deb baholansa, ikkinchi tomondan, ushbu obrazlarning badiiy o'ziga xosligini ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, ayollar obrazi V.Brittenning badiiy asarlarida asosiy o'rinni egallaydi.

V.Brittenning o'zi haqidagi "Yoshlik vasiyati" romanidan farqli ravishda, R.Oldingtonning "Qahramonning o'limi" nomli asarida uch asosiy ayol qahramonlar bo'lib, ular Jorj Uinterborn obrazini kashf etishda va uni shakllantirishda muhim vazifani bajaruvchi personajlar sifatida gavalantiriladi. Ular Jorjning onasi Izabel, rafiqasi Elizabet va ma'shuqasi Fenni hisoblanib, Jorj Uinterborn hayotida bu "ayollar uchligi" mustahkam o'rin olgan, ya'ni ayol qahramonlar uchrashgining markazida Jorj Uinterborn turadi va ularning har biri asar bosh qahramonining muayyan makon va zamonda shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Izabel Hartli Uinterborn – asar bosh qahramoni Jorj Uinterbornning onasi, Jorj Avgustos Uinterbornning rafiqasi. Romanning birinchi bobida Jorjning oilasiga tavsif beriladi. Otasi garchi o'rta sinf vakili bo'lsa-da, onasi Izabel boy oilaning o'g'liga turmushga chiqyapman deb o'ylaydi. *"Isabel Hartly was one – don't ask which in numerical order, or by which wife – of Captain Hartly's daughters. She was very pretty, in a florid, vulgarish way, with her artful-innocent dark eyes, and flashing smiles, and pretty little bustle and frills, and 'fresh complexion' and 'abounding health. She was fascinatingly ignorant, even to the none too sophisticated George Augustus"* [Aldington, 2013; 68] / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *"Izabel Hartli – kapitan Hartlining qizlaridan biri – raqam tartibida nechinchi va yoki qaysi xotinidan ekanligini so'rama. U juda ham chiroyli, beg'ubor, san'at asaridek aybsiz tikilib turuvchi ko'zlari, chaqnab turuvchi tabassumi, shodon qiyqiriqlari, tiniq chehrasi va sog'lom ko'rinishi bilan diqqatni tortardi. Oshiqlariga umuman rahmi kelmasdi, hatto ularning qatorida o'sha uncha jiddiy qabul qilmagani Jorj Avgustosgacha ham"*. Jorj Avgustos uni telbalarcha sevib qoladi. Uning boyligiga ishongan Izabel turmush qurishga rozi bo'ladi. Jorj tug'ilgach, hayotida bir nechta erkaklar bilan uchrashib, eriga xiyonat qiladi. O'g'li ham bu haqiqatni bilgach, onasidan nafratlanadi. U

shuning uchun ham uyini tark etib, Londonga kelib yashaydi. Jorj Uinterbornning ota-onasining prototiplari R.Oldingtonning ota-onasi hisoblanib, xuddi asar qahramonidek muallif ham ota-onasidan nafratlanar edi.

Jorj harakatlarini yuzaga keltiruvchi dinamika – ayollarning unga va jamiyatdagi boshqa a'zolarga munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Shularni inobatga olib, “ayollar uchligi” – harakatlarni yuzaga keltiruvchi personajlar va Jorjning o'zi – ta'sir ostida harakatlanuvchi personaj degan xulosaga kelishimiz mumkin.

R.Oldington o'z kitobini o'tmishdagi urush haqida haqiqatni aytib berish va yangi urush boshlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun yozadi. R.Oldington urushda omon qolgan odamlarga murojaat qilarkan, ularni urush sabablari va uning aybdorlari haqida o'ylashga majbur qiladi. “Nima uchun urush boshlandi? Kim javobgar edi?” qabilidagi savollar kitobxon oldida asar sahifalarida qayta-qayta paydo bo'ladi. “To'kilgan qon uchun butun dunyo aybdor”, deb xulosa qiladi R.Oldington, biron-bir zamondoshini bunday aybdan mustasno qilmagan holda. Yozuvchi harbiy tahdidning oldini olish usullarini bilmaydi, ammo ularni qat'iyat bilan izlaydi. U o'z asari orqali davrning eng muhim vazifasini hal qilishga ma'nan o'z hissasini qo'shadi. Adib bu holatni shu tarzda tasvirlaydi: *“That is why I am writing the life of George Winterbourne, a unit? One human body murdered, but to me a symbol. It is an atonement, a desperate effort to wipe off the blood-guiltiness. Perhaps it is the wrong way. Perhaps the poison will still be in me. If so, I shall search for some other way. But I shall search”* [Aldington, 2013; 24], deya ta'kidlaydi adib / Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi – *“Shuning uchun men Jorj Uinterbornning biografiyasini, ya'ni urushda o'ldirilgan odamning biografiyasini yozyapman. Bu – to'lov, to'kilgan qon uchun o'zidan aybdorlikni yo'q qilishga urinish. Ehtimol, bu usul noto'g'ridir. Ehtimol, zahar mening ichimda qolishi mumkin. Keyin men boshqa yo'lni qidiraman. Ha, qidiraveraman”*.

Jorjning o'limi haqidagi xabar ham asar muqaddimasida ana o'sha uch ayol reaksiyasi orqali tahlil qilinadi. Jorj barchani o'z o'limi bilan jazolashni xohlardi. U oilasidan, do'stlaridan, jamiyatdan norozi edi. Urush uning uchun barcha muammolardan qochish mumkin bo'lgan joy, o'zligini qayta anglash uchun berilgan imkoniyatdek va unga xuddi do'stlardek yordam berayotgandek taassurot uyg'otadi. Bu faqat Jorjning o'limi emas, u bilan bog'liq barcha xotiralarning, ertangi kunga bo'lgan umidlarning, shuningdek, hali otmagan tonglarning bevaqt botishi edi. Urushda o'lganlarning bari qahramon va qaytib kelganlari tirik o'liklardir, degan xulosa asarning leytmotivi darajasiga ko'tariladi.

R.Oldington va V.Britten asarlaridagi ayol qahramonlar va urush masalasi ko'ndalang qo'yilganda, R.Oldington ayol personajlar tasviriga asosan urushdan oldingi davr voqealarida ko'proq urg'u bergan bo'lsa, V.Britten o'zi markaziy xarakter sifatida avtobiografik roman voqealariga va davr muammolariga ayol nigohi bilan nazar soladi hamda ularning ongi va hissiyotlariga tayanib, tahlil qiladi. R.Oldington qahramonining ayanchli taqdiriga nafaqat urush, balki uning hayotidagi ayollar ham sababchidir. V.Britten bo'lsa hayotidagi to'rt muhim inson – to'rt erkakning o'limidan garchi urush tugab, g'alaba nishonlansa-da, qattiq aziyat chekadi va urush keltirgan ofatlarni unuta olmay qiynaladi.

Poeziyada “ayol–jamiyat–urush” munosabatlari talqini

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida garchi roman janri yetakchilik qilsa-da, lirikada epiklikka xos tasvirlarni mahorat bilan qo‘llash san‘ati R.Oldington va V.Britten individual uslubiga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil natijasida poeziya har ikkala ijodkorning badiiy imkoniyatlarini yanada oshirganligi ma‘lum bo‘ldi. Ularning ham nasrda, ham nazmda birdek ijod qilishlari “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti mazmun-mohiyatini to‘liq anglashda yordam beradi.

R.Oldington va V.Britten hatto nasrdagi ijodiy ishlarida ham matnga qorishiq ravishda she‘riy satrlardan foydalanishlari o‘quvchiga obrazning hissiy kechinmalarini, ichki dunyosini va asarning kulminatsiyon nuqtalarini ta’sirchan yetkazib berish vazifasini o‘taydi. Liriklik va epiklik xususiyatlarining bir ijodkor badiiy olamidagi sintezi, uyg‘unlashuvi nasrda lirizmni, nazmda epiklikni ta’minlaydi. Misol uchun, V.Britten ijodida mayin lirizm va sokinlik ustuvor bo‘lsa, R.Oldington she‘riyatida falsafiy mushohadakorlik va ehtiros namoyon bo‘ladi, har ikki ijodkor she‘rlarining fikran teranligi, purma’noliligi, his-tuyg‘u va ehtiroslarning samimiyligi, boyligi, shaklan va mazmunan rang-barangligi, jozibadorligi, g‘oyatda musiqiyliigi bilan o‘z davrida e’tirofga sazovor bo‘lgan.

R.Oldington imajizm tendensiyasi xususiyatlarini aks ettiruvchi she‘riy asarlari bilan ingliz “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida o‘z o‘rniga ega. Imajizm qonuniyatlari fikrni qisqa va sodda ifodalashni talab qilishi zahirida ham “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotining pafosli jimjimador so‘z va iboralaridan ko‘ra sodda grammatik qoidalarga amal qilish prinsipi yotadi. Aynan ushbu tendensiyaning imkoniyatlarini va mohiyatini ochib beruvchi she‘rlaridan biri “Images” (“Tasvirlar”) deb nomlangan bo‘lib, R.Oldington mazkur she‘ri orqali “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusini yoritadi.

“Tasvirlar” fikrning ravon va tushunarli ifodasi hamda satrlarda o‘z-o‘z boruvchi tasvirning faqat ko‘tarilish ohangini eslatuvchi she‘r bo‘lib, R.Oldington uni turli hajmdagi olti bandga ajratadi, bu bandlar uchtadan beshtagacha bo‘lgan misralardan tashkil topgan. She‘r modern she‘riyat an‘analari asosida yozilgan bo‘lib, qofiya va vazn birligiga ega emas. Shoir o‘z sevgilisining siymosini yaratishda tabiat manzaralaridan unumli foydalanadi. Tasvirlarda Venetsiya suvlarida tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab qizil kiyikcha tomon suzib borayotgan gondola kemasining aksi hamda kuchli shamollarga qarshi kurashib, hayotga qaytgan gul kabi obrazlar yor timsolini aks ettirishda parallel qo‘llaniladi:

Like a gondola of green scented fruits
Drifting along the dank canals of Venice,
You, O exquisite one,
Have entered into my desolate city [Aldington, 1916].

Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi –

Yashil xushbo‘y mevali gondola kabi
Venetsiya suvlaridan suzib kelasan.
Ey, mening dilbarim, jonim,

Kimsasiz shahrimga kirib kelasan.

R.Oldington she'rni o'xshatish bilan boshlaydi, ya'ni Venetsiya suvlarida suzib kelayotgan gondola qayig'i xuddi oshiqning yuragidan suzib o'tayotgan ma'shuqaga qiyoslanadi. R.Oldington bir necha bor uylanganligi va hayotida undan tashqari bir necha norasmiy sevgi munosabatlari bo'lgani "Qahramonning o'limi" romanida ham tasvirlanadi. Ushbu she'rda shoir o'z holatini juda sodda tasvirlarkan, uning ko'nglida sevgilisidan boshqa hech kimga o'rin yo'qligiga ishora qiladi. She'rda oshiq va ma'shuqa obrazlari roviy nutqi orqali ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik yordamida aks ettiriladi. Sevgi qolgan oshiq holati vayron bo'lgan shaharga qiyoslansa, ma'shuqa esa qiyinchiliklarni pisand qilmaydigan gulga o'xshatiladi.

The blue smoke leaps
Like swirling clouds of birds vanishing.
So my love leaps forth toward you,
Vanishes and is renewed [Aldington, 1916].

Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi –

Moviy tutunlar ko'kka intilar
Qushlar to'zg'itgan bulutlar kabi.
Mening sevgim ham senga intilib,
Yo'q bo'lib va qayta tirilgan kabi.

Ikkinchi bandda xuddi birinchi banddagidek shoir parallel o'xshatishdan mohirona foydalanadi. Endi oshiq ta'riflab bo'lmas muhabbatini, sevgilisiga intilishi, unga yetay deganda, parchalanib ketishi-yu va qayta tirilishini bulutlar orasidan ularni to'zg'itib uchib o'tuvchi qushlarga qiyoslaydi. Bulutdek tutun va qush – har ikkala obrazda ham parvozning borligi inobatga olinsa, shoir faqat yuksaklikka intiluvchi muhabbati haqida yozayotganligi tushuniladi.

V.Britten ijodida ham she'riyatning o'rni salmoqli bo'lib, shoir nasrda oshkor eta olmagan his-tuyg'ularini nazmda mohirona aks ettirgan. "Yoshlik vasiyati" romanida ham she'riy satrlar qahramonlarning ichki olamini teranroq ifodalash imkonini berib, kitobxonga ularning ichki olamini yanada tushunarliroq yetkazish vazifasini bajargan. Muallifning "August, 1914" ("Avgust, 1914") deb nomlangan she'ri ham o'z davrida ham juda mashhur bo'lgan. Urushga qarshi ruhda yozilgan ushbu she'r o'sha paytda urush "muqaddas" deb bong urayotgan ijtimoiy kuchlarga achchiq istehzo tarzida bitilgan. Urush millionlab insonlarni yaqinlaridan – ota-onasidan, yoridan, farzandlaridan ayirgan vahshiy qotil ekanini, urushning salbiy oqibatidan ko'plar aziyat chekkan bo'lsa-da, ammo farzandidan ayrilib, nido chekkan ota-onaning ayanchli dardini eshitish, yoridan ayrilgan ayollarning iztiroblarini his qilish hammasidan og'irligini she'rda ifoda etgan. Har bir bandi uch misradan iborat bo'lgan she'r orqali shoir urushning hech qanday ijobiy xususiyati yo'q ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Qofiyalanishi a-b-a, b-s-b, s-a-s shaklida bo'lib, har bir misra sakkiz bo'g'indan iborat. Qofiya va o'lcham juda aniq bo'lib, V.Britten prozaik unsurlardan ham unumli foydalanadi, jumladan, assonans, alliteratsiya va sezuralarning

qo'llanilishi she'rning badiiy qiymatini yanada oshiradi. Sezura bu she'rning ayrim qismlarida to'xtab olishni anglatib, berilayotgan she'r mazmunini teran idrok etishga imkon yaratadi. Ushbu she'rda quyidagi misralar mavjud:

God said, "Men have forgotten Me:
The souls that sleep shall wake again,
And blinded eyes must learn to see" [Brittain, 1918; 13].

Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi –

Xudo dedi: "Odamzod meni unutdi:
Uxlayotgan ruhlarin uyg'otmoq kerak,
So'qir ko'zlar ko'rishni albat o'rganar".

She'rning birinchi bandida lirik qahramon Xudoning aytganlarini o'quvchiga yetkazadi. Xudoning fikricha, odamzod uni quvonch-u shodliklar, qayg'u-yu alamlar ichra unutib qo'ygan. Xudo endi o'zini sajda qilishga loyiq ko'rilmayotgandek, odamlar uning mavjudligini his qilishdan to'xtagandek va u haqda fikr yuritmayotgandek xulosaga keladi. Endi bu xatolikni to'g'rilash vaqti keldi, deya qilgan xitobiga javoban o'zi nima qilishni bolalarga xos sodda va samimiy fikrlar bilan ta'kidlaydi, ya'ni g'aflat bosgan ko'ngillarning uyg'onishi va so'qir ko'zlar ochilishi lozim. Aynan ushbu ikki misra insoniyatga xos bo'lgan ezgu tuyg'ular – his qilish sezgisi yo'qolganini ifodalash orqali o'zgalar dardini his qilmaydigan darajada toshyurak, hayotning ma'naviy-ruhiy qadriyatlarini, mezonlarini ostin-ustun qilib tashlaydigan, yovuzlik urug'ini ekan xoin, sotqin, badbin kimsalar o'zgalar muammosini ko'rolmaydigan darajada so'qir degan mazmun kelib chiqadi. Bu sifatlar aynan urushni boshlaganlar va urushni muhim sanagan ma'nan tanazzulga yuz tutgan jamiyat a'zolariga tegishli edi. Agar ular urush halokatini, insoniyat boshiga yog'dirgan kulfat va talofatlarni his qila olsalar, ko'ra olsalar hech qachon urushga rozi bo'lmasdilar. She'rda lirik qahramonning yorug' kelajakdan umidi bor, u Xudoning so'zlarini kitobxonlarga yetkazarkan, "qalblar uyg'onish"ni, "ko'zlar ko'rish"ni o'rganishi kerak, deb ta'kidlaydi. Demak, urushni to'xtatishga ozgina bo'lsa-da, ilinj va ishonch bor. "O'rganish" kimlarga xos, shu narsani bilmaganlarga, ilmsizlarga xos. "Learn" – "o'rganish" asosan ijobiy bo'yoqdorlikni ko'rsatishda qo'llanuvchi fe'l bo'lib, shoira ham aynan shu so'z orqali she'rda optimistik ruhni berishni ko'zlaydi.

So since redemption comes through pain
He smote the earth with chastening rod,
And brought destruction's lurid reign [Brittain, 1918; 13].

Muallif (Sh.Ch.) tarjimasi –

Avf etish og'riqdan kelgani sabab
Dahshatli saltanatin keldi yetaklab
Tayoq bilan zaminni rosa kaltaklab.

She'r sarlavhasidan asosiy mohiyat 1914-yilning avgust oylarida ro'y bergan

voqealar anglashiladi. Tarixdan ma'lumki, 1914-yil 1-avgustda Rossiyaning Serbiyani qo'llab-quvvatlash uchun bergan harbiy yordamiga javoban Germaniya Rossiyaga urush e'lon qiladi. Urushning e'lon qilinishi Germaniya harbiy kuchlarini ham safarbar qilishni talab qiladi. Lekin rasmiy ravishda Birinchi jahon urushi 1914-yilning 28-iyulida boshlangan edi, V.Britten bo'lsa undan uch kun keyingi voqealarga urg'u beradi. She'rning ham aynan avgustning qaysidir kuni bilan emas, butun oy nomi bilan atalishida ham ramziy ma'no mavjud. Birinchi jahon urushi davrida avgust oyining har bir kuni shiddatli tafsilotlarga to'liq bo'lib, urushga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rilganini va tizimli reja asosida har bir davlatning harakatlanayotganini ko'rsatadi.

R.Oldington va V.Brittenning nazmiy asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala ijodkor ham xuddi prozadagi kabi "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti xususiyatlarini namoyon etib, urush va uning oqibatlari to'g'risida fikr yuritishadi. She'r bayonining tushkun kayfiyati davr ruhini berib, shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilganligi va avlodlararo jarlikning paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Prozada ham, poeziyada ham ijodkorlarning badiiylik mahorati janr imkoniyatlarini qamrab oladi va o'ziga xoslik kasb etadi.

XULOSA

Ingliz "Yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayollar obrazining badiiy o'ziga xosligi muammosi R.Oldington va V.Britten asarlari misolidagi tahlili jarayonida olingan natijalarga ko'ra quyidagi asosiy xulosalarni yasashimiz mumkin:

1. Yevropa va Amerika "Yo'qotilgan avlod" adabiyotiga mansub dekadentlik, gender munosabatlar va bepushtlik hamda ideallashtirilgan o'tmish kabi uch asosiy mavzu o'sha davrda yaratilgan betakror va original asarlardagi fikr yangiligi, ifodaning tushunarililigini ta'minlab, adiblar uslubining individual o'ziga xosligi, tasvir originalligi va tuyg'ular ifodasi to'liqligiga erishishlariga zamin hozirlagan. Asosiy g'oya esa insonparvarlikning tanazzulga yuz tutishi, qadriyatlar mansab va boylik bilan o'lchanishi, inson kamolotga emas, razolatga qarab ketayotganligi bilan karakterlanadi.

2. Urush sabab ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy mavqeining ko'tarilishi, jang maydonlarida ayollar bajargan turli majburiyatlar, ayollarning tinchlikni targ'ib qiluvchi harakatlarga rahnamolik qilishlari hamda inqilobiy ruhdagi nutqlar bilan namoyishlarda ishtirok etishlari, urushning ayollarga bevosita va bilvosita ta'siri kabi to'rt umumiy jihat urush va ayollar mavzusiga bag'ishlangan asarlarning badiiy-estetik mohiyatini to'laroq anglatishga xizmat qildi.

3. R.Oldington va V.Britten ayol obrazlari psixologizmini yaratishda dialog, monolog, portret, maktub, psixologik detal, psixologik tafsilot, psixologik parallelizm singari badiiy vositalardan foydalanishgan. Ayol va ona ruhiyatini idrok etish, tahlil qilish natijasi o'laroq, badiiy asarda aks ettirilgan urushning ayanchli va iztirobli manzarasining ayollar ruhiy holatiga ta'siri ifodasi yozuvchilarning badiiy psixologik talqinlarining yuksak mahsuli bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

4. R.Oldingtonning "Qahramonning o'limi" va V.Brittenning "Yoshlik vasiyati" romanlari tahlili yozuvchilarning muammoga yondashuv uslubida gender

munosabatlarni ifodalashda o'ziga xos uslubga ega bo'lganliklarini namoyon etdi. Binobarin, R.Oldington va V.Britten ayni zamon va makon voqealarini tanlasalar-da, ayollarga xos hissiyotlarga berilish V.Britten asarlarida ustunlik qilsa, R.Oldington tasvirga ratsional yondashganligi o'z tasdig'ini topdi.

5. R.Oldington va V.Britten asarlarida yozuvchi uslubi va badiiy mahorat masalalari bo'yicha olib borilgan izlanishlar har ikkala ijodkorning nazmiy va nasriy asarlarida "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti xususiyatlari yetakchilik qilishi bilan bir qatorda o'zlari yashagan davr uchun originallik va novatorlik sifatleri ham ularga tegishli bo'lgan badiiyatining o'ziga xosligini namoyon etishga xizmat qilgan.

6. R.Oldington va V.Britten nasrida matnga qorishiq ravishda keltirilgan she'riy parchalar qahramonning ma'naviy-ruhiy yuksalishi va ichki olamida ro'y bergan evrilishlarning badiiy ifodasi hamda ijodkorlarning o'zi tasvirlayotgan voqealikka g'oyaviy-hissiy munosabatini ifodalash, ruhiy tasvir tiniqligiga erishish vazifasini bajaradi.

7. Angliya-Amerika avangard shoirlarini birlashtirgan jangovar hayqiriq sifatida yuzaga kelgan imajizm adabiy oqimi R.Oldington va V.Britten she'riyatiga ham muhim ta'sir ko'ratdi. Xususan, R.Oldington she'rlarida majoziy tasvirlarni ifodalaydigan metaforalardan samarali foydalanilgan. Shu bilan birga, V.Britten va R.Oldington she'riyati mavzulari chuqur shaxsiy tajribalar bilan to'yingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aldington, R. (2013). *Death of a Hero*. New York: Penguin Books.
2. Aldington, R. (1916). *Images – old and new*. Boston: The Four Seas Press.
3. Aleksiyeovich, S. (2018). *Urushning ayoldan yiroq qiyofasi* (F.Musayeva (Tarj.)). Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Axmedova, A. (2021). XX asr amerika va o'zbek realistik romanlarida ideal qahramon obrazi (Sinkler Lyuisning "Erousmit" va Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romanlari misolida). *Filol. fan. fal. dok. diss.* Toshkent.
5. Bishop, A., & Bostridge, M. (Eds.). (1998). *Letters from A Lost Generation: First World War letters of Vera Brittain and four friends*. Boston: Northeastern.
6. Brittain, V. (1918). *Verses of a V.A.D.* London: Erskine MacDonald.
7. Brittain, V. (1933). *Testament of Youth*. New York: The MacMillan Company.
8. Brittain, V. (1991). *Nation and Athenaeum*. London: Friendship Forever.
9. Brittain, V. (2005). *Tastement of Youth*. London: Penguin Classics.
10. Gel'bke, F., Georgiyevskiy, L., Zelinskiy, F. (1885). *Real'nyy slovar' klassicheskikh drevnostey po Lyubkeru*. Sankt-Peterburg: Izdaniye Obshchestva klassicheskoy filologii i pedagogiki.
11. Grayzel, S.R. (2024). *Women and the First World War* (2nd ed.). London: Routledge.
12. Dichkovskaya, Ye.A., Latyshevich, D.I., & Letyago, Ye.V. (2018 god 25-26 oktyabrya). Istoriya amerikanskoy literatury: «Poteryannoye pokoleniye». *Yazykovaya lichnost' i effektivnaya kommunikatsiya v sovremennom polikul'turnom mire: materialy IV Mezhdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii* (ss. 178–182). Minsk: Belorusskiy gosudarstvennyy universitet.
13. Fayzullayeva, U.I. (2020). Virjiniya Vulf romanlarida ayol ichki dunyosining tasvirlanishi. *Filol. fan. fal. dok. diss.* Jizzax: Jizzax davlat pedagogika instituti.
14. Hynes, S. (1990). *A war imagined: The First World War and English culture*. UK: The Bodley Head.
15. Isomiddinov, Z. (2011). Ikki ayol. B.Karimov (Tuzuv.), *O'zbek adabiy tanqidi* (372–385-

- b.). Toshkent: “Turon-iqbol” nashriyot uyi.
16. Karamzin, N.M. (1991). *Zapiska o drevney i novoy Rossii v yeye politicheskoy i grazhdanskoj otnosheniyakh*. Moskva: Nauka.
 17. Kernot, C.F. (1927). *British public schools' war memorials*. London: Roberts & Newton.
 18. Ko'chimov, U. (2021). Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida). *Filol. fan. fal. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
 19. Lutfiddinova, X. (1994). Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi (“O'tgan kunlar” va “Kecha va Kunduz” romanlari misolida). *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
 20. Murodov, G'., & Temirova, D. (2008). *Tarixiy romanda syujet muammosi*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
 21. Muxammedova, N.E. (2019). Margaret Drebbel asarlarida ayol obrazi va uning ijtimoiy-estetik talqini. *Filol. fan. fal. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
 22. Muxammedova, X.E. (2019). Charlz Dikens asarlarida ayol xarakteri tipologiyasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
 23. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
 24. Ulug'ov, A. (2011). Adabiy qahramon qadri. B.Karimov (Tuzuv.), *O'zbek adabiy tanqidi* (462–476-b.). Toshkent: “Turon-iqbol” nashriyot uyi.
 25. Urnov, M. (1968). *Richard Oldington*. Moskva: Vysshaya shkola.
 26. Xolbekov, M. (2012). *XX asr modern adabiyoti manzaralari*. Toshkent: “Mumtoz so'z” nashriyoti.
 27. Xoldarov, D.E. (2017). Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida). *Filol. fan. fal. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
 28. Winter, J.M. (1986). *The Great War and the British people*. London: Macmillan.
 29. Wohl, R. (1980). *The generation of 1914*. London: Weidenfeld & Nicolson.
 30. Yo'ldosh, Q., & Yo'ldosh, M. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent: “Kamalak” nashriyot uyi.
 31. Zatonskiy, D. (1988). *Khudozhestvennyye oriyentiry XX veka*. Moskva: Sovetskiy pisatel'.

REFERENCES

1. Akhmedova, A. (2021). The image of an ideal hero in American and Uzbek realist novels of the 20th century (in the examples of “Arrowsmith” by Sinclair Lewis and “Three Roots” by Pirimqul Qodirov). *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
2. Aldington, R. (1916). *Images – old and new*. Boston: The Four Seas Press.
3. Aldington, R. (2013). *Death of a Hero*. New York: Penguin Books.
4. Alexievich, S. (2018). *War does not have a woman's face* (F.Musaeva (Trans.)). Tashkent: Creative Publishing House of ‘Uzbekistan’.
5. Bishop, A., & Bostridge, M. (Eds.). (1998). *Letters from A Lost Generation: First World War letters of Vera Brittain and four friends*. Boston: Northeastern.
6. Brittain, V. (1918). *Verses of a V.A.D.* London: Erskine MacDonald.
7. Brittain, V. (1933). *Testament of Youth*. New York: The MacMillan Company.
8. Brittain, V. (1991). *Nation and Athenaeum*. London: Friendship Forever.
9. Brittain, V. (2005). *Tastement of Youth*. London: Penguin Classics.
10. Gelbke, F., Georgievsky, L., Zelinsky, F. (1885). *A real dictionary of classical antiquities according to Lubcker*. St. Petersburg: Publication of the Society of Classical Philology and Pedagogy.
11. Grayzel, S.R. (2024). *Women and the First World War* (2nd ed.). London: Routledge.
12. Dichkovskaya, Y.A., Latyshevich D.I., & Letyago Y.V. (2018, October 25-26). History of American Literature: “The Lost Generation”. *Linguistic Personality and Effective Communication in the Modern Multicultural World: materials of the IV International*

- Scientific and Practical Conference (p. 178–182). Minsk: Belarusian State University.
13. Fayzullaeva, U.I. (2020). Description of the female inner world in the novels of Virginia Woolf. *PhD thes. philol. scien.* Jizzakh: Jizzakh State Pedagogical Institute.
 14. Hynes, S. (1990). *A war imagined: The First World War and English culture*. UK: The Bodley Head.
 15. Isomiddinov, Z. (2011). Two women. In B.Karimov (Comp.), *Uzbek Literary Criticism* (pp. 372–385). Tashkent: Publishing House of ‘Turan-Iqbal’.
 16. Karamzin, N.M. (1991). *A note on ancient and modern Russia in political and civil relations*. Moscow: Science.
 17. Kernot, C.F. (1927). *British public schools’ war memorials*. London: Roberts & Newton.
 18. Kholbekov, M. (2012). *Landscapes of modern literature of the 20th century*. Tashkent: Publishing House of ‘A Classic Word’.
 19. Kholdarov, D.E. (2017). The problem of artistic style in contemporary Uzbek short stories (in the case of the short stories of Shoyim Botayev and Nazar Eshonqul). *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
 20. Kochimov, U. (2021). The concept of artistic psychologism in fantastic works (as an example of the works of Ray Bradbury and Hojiakbar Shaikhov). *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 21. Kuronov, D., Mamajonov, Z., & Sheralieva, M. (2013). *Literary dictionary*. Tashkent: Academic Publishing House.
 22. Lutfidinova, Kh. (1994). The aesthetic ideal of the writer and the image of women (in the case of the novels “Days Gone By” and “Night and Day”). *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent.
 23. Mukhammedova, N.E. (2019). Female image and its socio-aesthetic interpretation in the works of Margaret Drabble. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 24. Mukhammedova, Kh.E. (2019). Typology of the female character in the works of Charles Dickens. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
 25. Muradov, G., & Temirova, D. (2008). *A plot problem in a historical novel*. Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
 26. Ulugov, A. (2011). The value of a literary hero. In B.Karimov (Comp.), *Uzbek Literary Criticism* (pp. 462–476). Tashkent: Publishing House of ‘Turan-Iqbal’.
 27. Urnov, M. (1968). *Richard Aldington*. Moscow: Higher School.
 28. Winter, J.M. (1986). *The Great War and the British people*. London: Macmillan.
 29. Wohl, R. (1980). *The generation of 1914*. London: Weidenfeld & Nicolson.
 30. Yoldosh, Q., & Yoldosh, M. (2016). *Fundamentals of artistic analysis*. Tashkent: Publishing House of ‘Rainbow’.
 31. Zatonsky, D. (1988). *Artistic landmarks of the twentieth century*. Moscow: Soviet Writer.